

Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari institutining TALABA VA MAGISTRANTLARI UCHUN "Eng yaxshi intellektual mulk" ob'yektlari "INTELLEKTUAL-2019" tanlovi

Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti ixtirochilik va ilmiy-texnikaviy ijodni rag'batlantirish, innovatsion faollikni oshirish, yangi texnika, texnologiya va raqobatbardosh mahsulotlarni yaratish yo'li bilan eng yaxshi intellektual mulk ob'yektlarini tanlab olish maqsadida ularning mualliflariga quyidagi nominatsiyalar bo'yicha **"INTELLEKTUAL-2019" tanlovini e'lon qiladi:**

- **Eng yaxshi innovatsion loyiha;**
- **Eng yaxshi innovatsion ishlanma;**
- **Eng yaxshi EHM uchun yaratilgan dastur va ma'lumotlar bazasi;**
- **Mobil ilovalari uchun yaratilgan dastur.**

Tanlovga institutning professor-o'qituvchilari muallifligida yaratilgan **so'nggi 3 yil** (2017-2019 yy.) davomida O'zbekiston Respublikasi Intellektual mulk agentligidan olingan intellektual mulk ob'ektlaridan - **Ixtirolar, - Foydali modellar, - Sanoat namunalari, - EHM uchun dasturlar va ma'lumotlar ba'zalari va Mobil ilovalari uchun yaratilgan dasturlar qabul qilinadi.**

Oldingi o'tkazilgan tanlovlarda sovrinli o'rinlarni egallagan ishtirokchilarning arizalari qabul qilinmaydi. (Bunda ishtirokchi emas balki loyihasi nazarda tutilgan)

Tanlov yiliga 2 marta: 10 maydan - 20 maygacha, 10 noyabrdan - 20 noyabrgacha o'tkaziladi.

Tanlov ishtirokchilari quyidagi hujjatlarni taqdim qiladilar:

- Nizomning 1-ilovasiga muvofiq shaklda ishtirok etish uchun ariza;
- Intellektual mulk agentligidan olingan intellektual mulk ob'ektlari hujjatlarining nusxasi;
- Loyiha ob'ektidan foydalanishga tayyorligi to'g'risidagi tasdiqlangan hujjat (*Dalolatnoma, akt vnedreniya*).

Tanlov natijalari 2019 yilning 10 iyunida e'lon qilinadi.

Tanlovda har bir nominatsiya bo'yicha sovrinli 1-3 o'rinlarni egallagan tanlov g'oliblari quyida ko'rsatilgan miqdordagi **pul mukofotlari** bilan taqdirlanadilar:

1 - o'rin: - eng kam ish xaqining 5 barobari;

2 - o'rin: - eng kam ish xaqining 4 barobari;

3 - o'rin: - eng kam ish xaqining 2,5 barobari.

Tanlovga arizalar 2019 yilning 25 apreldan - 10 maygacha (soat 9.00 dan 16.00 gacha) 100000, Tashkent sh., Q.Niyoziy 39., Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy pedagog kadrlar tayyorlash bo'limi (B-bino 2-qavat 230 va 233 xonalar) manzilida qabul qilinadi.

Murojat uchun telefonlar: 0371 237-19-61, 0371 237-09-46

Tanlov Nizomining (o'zbek va rus tilidagi matni) bilan institutning tiiame.uz

rasmiy [veb-saytida](#) tanishishingiz mumkin.